

Boshqarmaning vazifa va funksiyalari

1. Ishlab chiqarish va ijtimoiy ahamiyatdagi ob'ektlar, shuningdek, yo'l-transport va muhandislik-kommunikasiya infratuzilmalari, turar-joy va boshqa ob'ektlarda qurilish ishlari, rekonstruksiya, kapital va joriy ta'mirlash ishlarini bajarish;

aholi shart-sharoitlarini yaxshilash hamda shahar, tuman va qishloq joylar infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida respublika va hukumat rahbariyati tomonidan tasdiqlangan dasturlar ("Obod qishloq", "Obod mahalla" va boshqalar) ijrosi bo'yicha belgilangan ishlarni amalga oshirish;

daryo o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarini mustahkamlash, muhandislik-muhofaza tadbirlarini amalga oshirish, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish hamda fuqaro muhofazasi tadbirlarida ishtirok etish;

Orol dengizining qurigan tubida cho'l-butazor yaylovlarini barpo etish, cho'l, yarimcho'l va tog' landshaftlari o'simlik qoplamalarini tiklash va mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

2. Ob'ektlarda maxsus ishlarning sifatli va o'z vaqtida olib borilishini ta'minlaydi; ob'ektlarning loyiha-smeta hujjatlari talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

maxsus ishlarni bajarish jarayonida texnika, yo'l harakati va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

maxsus ishlarni bajarish joylarida shaxsiy tarkib uchun xavfsiz sharoitlarni yaratadi, shuningdek, xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini doimiy nazorat qiladi;

"Obod qishloq", "Obod mahalla" davlat dasturlariga kiritilgan vazifalar talablarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlaydi;

bir qavatli va ko'p qavatli namunaviy asosdagi turar-joylar qurilishi, ijtimoiy ahamiyatdagi ob'ektlarni (maktab, maktabgacha ta'lim, tibbiyot muassasalari va h.k.) kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilitt ishlari, shuningdek, yo'llar qurilishi, muhandislik-kommunikasiya infratuzilmalari va hududlarni obodonlashtirish ishlarini amalga oshiradi, shuningdek, ko'rsatilgan ishlarning amalga onshrilishida o'ziga tegishli avtomobil', maxsus va muhandislik texnikalarini yetarli miqdorda jalb etadi;

"Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturlariga ko'ra shaharlar, tumanlar, kishloq joylar va boshqa ob'ektlarda maxsus ishlarning bajarilishda qurilish me'yor va qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlaydi;

vazirlik xududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari va tarkibiy tuzilmalari hamda Uzbekiston Respublikasi FVDT hududiy va funksional quyi tizimlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

daryo o'zanlari uchastkalarining suv o'tkazish qobiliyatini ta'minlash maqsadida, yuvilishi, suv bosishi mavjud hududlar va cho'kmalardan hosil bo'ladigan xavfli uchastkalarda olib boriladigan ishlarning hajm jihatdan hisobini amalga oshiradi;

ishlarni bajarish turlarini aniqlaydi (qirg'oqlarni mustahkamlash - beton, gabion, tosh va boshqalar bilan muhandislik-muhofaza tadbirlari -damba, shpora, tirgak devorlar va boshqalar) qamda kerakli kuch va vositalar taqsimotini amalga oshiradi;

bajarilayotgan ishlarning sifatli, belgilangan hajmda va turi bo'yicha amalga oshirilayotganligini vaqti-vaqti bilan nazorat qilib boradi;

favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarini amalga oshirish uchun o'z kuch va vositalarining doimiy shay holatda saqlanishini ta'minlaydi;

vazirning ko'rsatmasiga asosan favqulodda vaziyatlar zonasida qutqaruv ishlarida qatnashadi.

cho'l, yarimcho'l va tog'li hududlarni suv bilan ta'minlash bo'yicha tadbirlarda qatnashish;

cho'l, yarimcho'l va tog'li hududlarda daraxtzorlar barpo etish ishlari hamda harakatlanuvchi qumlarni mustahkamlash ishlarini amalga oshiradi;

Orol dengizining qurigan tubida cho'l-butazor yaylovlarini barpo etish tadbirlarini amalga oshiradi;

Orolbo'yi hududlarida joylashgan aholining yashash shart-sharoitlarini ta'minlovchi infrastruktura ob'ektlarining qurilishini amalga oshiradi;

Orol dengizining suvi qurigan maydonlari hamda orolbo'yi hududlarida shamol ta'sirida yuzaga keladigan kuchli qum, tuz va chang bo'ronlarini kamaytirish, qum ko'chishini bartaraf etish, mintaqada ekologik holatni yaxshilash maqsadida "Yashil qoplamalar" himoya o'rmonzorlarini barpo etish ishlarida qatnashish.

shaxsiy tarkibning harbiy vatanparvarlik, ruhiy-axloqiy, harbiy va huquqiy tarbiyasi, ruhiy tayyorgarligi, harbiy va mehnat intizomini mustahkamlash hamda harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, ishchi va xizmatchilarning ijtimoiy-huquqiy muhofazasi bo'yicha tarbiyaviy reja va dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;